



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUUI USTIDAN NAZORAT
QILISH INSPEKSIYASI BOSHIG‘INING
BUYRUG‘I**

2023-yil «27» fevral

S-2-23

**“O‘zagroinspeksiya” ichki lokal va ish hujjatlariga o‘zgartirish va
qo‘shimchalar kiritish haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli va 2021 yil 10 fevraldagi PF-6166-son Farmonlari ijrosini samarali tashkil etish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldagi 575-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya to‘g‘risidagi nizomning 17-band, “j” kichik bandiga asosan

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya to‘g‘risidagi nizomning 17-band, “j” kichik bandiga asosan ijrosini nazorat qilish to‘g‘risidagi yo‘riqnoma yangi tahrirda 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Don va don mahsulotlari partiyalarning tozalov dalolatnomalarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibini belgilash to‘g‘risidagi namunaviy tozalash dalolatnomalari 2-ilovaga muvofiq;

Paxta, don va un mahsulotlari sifat sertifikat shakllariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar 3-ilovaga (1-3 namunaga) muvofiq kiritilsin.

3. “O‘zagroinspeksiya” boshlig‘i o‘rinbosari, markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari, tumanlar (Quvasoy shahar) bo‘limlari hamda O‘zagroinspeksiya qoshidagi markaz rahbarlari:

“O‘zagroinspeksiya” tizimida ish yuritish, hujjatlarni rasmiylashtirish va ijrosini nazorat qilishni ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq tashkil etsin;

Yo‘riqnomaning mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan xodimlarni tanishtirsin va ularning mustaqil o‘qib o‘rganishlarini ta‘minlasin;

ish yuritish, hujjatlarni rasmiylashtirish va ijrosini nazorat qilishda mazkur Yo'riqnoma, amaldagi normativ-huquqiy va boshqa qonunchilik hujjatlari talablaridan og'ishmay rioya qilsin;

namunadagi kitob va boshqa xizmat hujjatlari bilan ta'minlash choralarini ko'rsin;

ichki lokal va ish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish choralarini ko'rsin.

Bu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan mas'uliyat va shaxsiy javobgarlik barcha darajadagi rahbarlar va xodimlarning zimmasiga yuklansin.

4. "O'zagroinspeksiya"ning markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari bir hafta muddatda o'z yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan amaldagi buyruqlarni xatlovdan o'tkazib, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarini Axborot-tahlil, ijro nazorati va ma'muriy amaliyot boshqarmasiga taqdim etsin.

5. Axborot-tahlil, ijro nazorati va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (J.Mirsaidov) ushbu buyruqni Inspeksiyaning tarkibiy va hududiy bo'linmalariga hamda tizim tashkilotlariga yetkazsin.

6. "O'zagroinspeksiya" boshlig'ining 2022-yil 19-avgustdagi I-64-son hamda 2022-yil 9-dekabrdagi I-95-sonli buyruqlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin,

2021-yil 29-noyabrdagi S-13-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Boshliq
Toshkent sh.

A. Vaxabov